Dastlabki ma’lumotlarga ko‘ra, 2025- yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyati bo‘yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o‘rinlarda – YAHM) hajmi joriy narxlarda 14 559,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2024- yilning yanvar-mart oylari bilan taqqoslaganda 6,0 % ga o‘sdi.

YAHM deflyator indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylari narxlariga nisbatan 111,1 % ni tashkil qildi.

O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha YAIMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo‘shgan hissasi 4,4 % ga yetdi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot






YAHM o‘sish sur’ati

YAHM hajmi

YAHM deflyator indeksi

YAIMga qo‘shgan hissasi

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM ishlab chiqarish hajmi va o‘sish sur’atlari

| | *Mlrd. so‘m* | | ***O‘sish sur’atlari,*** *o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da* |
|---|---|---|---|
| | ***2024- yil*** | ***2025- yil*** | |
| **I. YAHM, jami** | **12 388,0** | **14 599,0** | **106,0** |
| *shu jumladan:* | | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 12 050,5 | 14 156,6 | 106,0 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 337,5 | 442,4 | 108,7 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **12 050,5** | **14 156,6** | **106,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **2 474,6** | **2 901,1** | **103,6** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **4 220,0** | **4 912,0** | **106,0** |
| sanoat | 2 966,6 | 3 564,9 | 107,1 |
| qurilish | 1 253,4 | 1 347,1 | 103,6 |
| **xizmatlar** | **5 355,9** | **6 343,5** | **107,0** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 1 858,4 | 2 208,1 | 109,2 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 868,6 | 1 098,9 | 114,4 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 2 628,9 | 3 036,5 | 103,0 |

Quyida keltirilgan infografikadan ko‘rinib turganidek, aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 7 019,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilga nisbatan 4,4 % ga yuqoridir.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi
*(ming so‘mda)*

| | |
|---|---|
| 2024- yil | 6 050,9 |
| 2025- yil | 7 019,1 |

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘sish sur’atlari
*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)*

| | |
|---|---|
| 2024- yil | 104,7 % |
| 2025-yil | 104,4 % |

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi

*(jamiga nisbatan % da)*

| | *2024- yil* | *2025- yil* |
|---|---|---|
| **I. YAHM, jami** | **100,0** | **100,0** |
| *shu jumladan:* | | |
| tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati | 97,3 | 97,0 |
| mahsulotlarga sof soliqlar | 2,7 | 3,0 |
| **II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati** | **100,0** | **100,0** |
| **qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi** | **20,5** | **20,5** |
| **sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)** | **35,0** | **34,7** |
| sanoat | 24,6 | 25,2 |
| qurilish | 10,4 | 9,5 |
| **xizmatlar** | **44,5** | **44,8** |
| savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar | 15,4 | 15,6 |
| tashish va saqlash, axborot va aloqa | 7,2 | 7,8 |
| boshqa xizmat tarmoqlari | 21,9 | 21,4 |

# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2025- yilning yanvar-mart oylarida hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,0 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,0 % ini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 20,5 % ni, sanoat tarmog‘i 25,2 % ni, qurilish 9,5 % ni va xizmatlar sohasi 44,8 % ni tashkil qildi.

## Yanvar-mart oylarida iqtisodiy faoliyat turlaribo‘yicha YAHM tarkibi *(jamiga nisbatan % da)*

**2024- yil**




**2025- yil**




Yalpi qo‘shilgan qiymat     Mahsulotlarga sof soliqlar

YAHM o‘sishiga qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi tarmog‘i 0,7 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,7 f.p.), sanoat tarmog‘i – 1,7 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 1,2 f.p.), qurilish tarmog‘i – 0,4 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,5 f.p.) va xizmat ko‘rsatish sohasi – 3,0 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 3,7 f.p.) ijobiy hissa qo‘shdi.

Mahsulotlarga sof soliqlarning o‘sishi hisobiga YAHM 0,2 f.p. (2024- yilning yanvar-martida – 0,3 f.p.) ga ko‘paydi.

## 2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM o‘sishida tarmoqlarning hissasi

*(jamiga nisbatan % da)*



# YALPI HUDUDIY MAHSULOTNI ISHLAB CHIQARISH

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHMning o‘sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o‘sish sur’atlari bilan bog‘liqdir. O‘sish sur’atlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 103,6 % (YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi – 20,5 %), sanoatda – 107,1 % (25,2 %), qurilishda – 103,6 % (9,5 %), xizmatlar sohasida – 107,0 % ni (44,8 %) tashkil etdi. Xizmatlar sohasi tarkibida o‘sish sur’atlari savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlarda 109,2 % (15,6 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa 114,4 % (7,8 %), boshqa xizmat tarmoqlarida 103,0 % dan (21,4 %) iborat bo‘ldi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha mutlaq o‘sish sur’atlari

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| 2024- y. | | 2025- y. |
|---|---|---|
| 106,4 % | YAHM | 106,0 % |
| 103,2 % | Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 103,6 % |
| 105,3 % | Sanoat | 107,1 % |
| 104,7 % | Qurilish | 103,6 % |
| 109,0 % | Xizmatlar | 107,0 % |

2025- yilning yanvar-mart oylarida YAHM deflyatori indeksi 2024- yilning yanvar-mart oylaridagi narxlarga nisbatan 111,1 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko’rsatkichlari qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida – 113,2 % va sanoatda – 112,2 % qayd etildi.

## Yanvar-mart oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo’yicha deflyator indeksi

*(o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da)*

| | 2024- y. | 2025- y. |
|---|---|---|
| YAHM | 110,3 % | 111,1 % |
| Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi | 107,2 % | 113,2 % |
| Sanoat | 114,3 % | 112,2 % |
| Qurilish | 109,9 % | 103,7 % |
| Xizmatlar | 113,8 % | 110,7 % |

2025- yilning yanvar-mart oylarida kichik tadbirkorlik 8 965,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi (2024- yilning yanvar-mart oylarida – 7 690,3 mlrd. so‘m). YAHMdagi ulushi 63,3 % ni (2024-yilning yanvar-mart oylarida – 63,8 %) tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o‘tgan yilning mos davriga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining kamayishi bilan bog‘liq.

**Yanvar-mart oylarida kichik biznesning hajmi va YAHMdagi ulushi**
*(jamiga nisbatan %da)*



| | Hajmi, mlrd.so‘m | Ulushi, % da |
|---|---|---|
| 2024- yil | 7 690,3 | 63,8 % |
| 2025- yil | 8 965,7 | 63,3 % |

